



**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**THE COLLECTION AND PRACTICAL IMPLEMENTATION  
OF A TEACHER'S INNOVATIVE PEDAGOGICAL EXPERIENCE**

STUDENTS OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

**Choriyeva Maftuna Bahodirovna**

[maftunachoriyeva344@gmail.com](mailto:maftunachoriyeva344@gmail.com)

**Ortiqova Farzona Bozorovna**

[farzonaortqova@gmail.com](mailto:farzonaortqova@gmail.com)

**Annotation** This article analyzes the stages of organizing advanced pedagogical experiences in an innovative educational environment, their practical significance. Also, the role of teachers' exchange of pedagogical experience in the educational process is revealed.

**Key words and expressions:** pedagogical experiences, practice, teacher, qualification, analysis, process, innovative ideas, stage, resource, result

**O'QITUVCHILARNING ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARINI  
TO'PLASH VA AMALIYOTDA QO'LLASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABALARI

**Choriyeva Maftuna Bahodirovna**

[maftunachoriyeva344@gmail.com](mailto:maftunachoriyeva344@gmail.com)

**Ortiqova Farzona Bozorovna**

[farzonaortqova@gmail.com](mailto:farzonaortqova@gmail.com)

**Anotatsiya** Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhitida ilg'or pedagogik tajribalarni tashkil etish bosqichlari, ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik tajriba almashinuvining ta'lim jarayonidagi o'rni ochib berilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** pedagogik tajribalar, amaliyot, o'qituvchi, malaka, tahlil, jarayon, innovatsion g'oyalar, bosqich, resurs, natija





# JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Ta'limning zamonaviy sharoitda innovatsion ijodiy faoliyatning roli ortib bormoqda ,chunki ta'lim mazmunini sezilarli darajada yangilash, ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida innovatsion tashabbuslar va ijodkorlik asosida yangi sifatga erishish zarurati paydo bo'la boshladi.

Ilg'or innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa elektron nashrlarga talabning kuchayib borayotganligi ilm-fan taraqqiyotini yana chuqur egallash uchun yaratilayotgan qulay imkoniyatlardir.

Ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida ommalashib kelayotgan elektron adabiyotlar va ularning tatbiqi davr talabi hisoblanadi. Ilg'or pedagogik tajriba - bu hozirgi davr va rivojlanishning dastlabki bosqichida o'qituvchilar nazariyasi va amaliyotining eng yaxshi yutuqlarini amaliy pedagogik faoliyatda qo'llashdir. Innovatsion pedagogik tajriba - ta'lim faoliyatini tashkil etishning zamonaviy ta'lim vositalari va innovatsion g'oyalari, usullari va texnologiyalaridan foydalanish. Bu, albatta, yangi, ilg'or, mualliflik kashfiyotlari, yangi ishlanmalar, ixtirolarni o'z ichiga oladi. Ilg'or pedagogik tajriba ostida eng yuqori va sifat jihatidan yangi natijalarga erishish imkonini beradigan tajriba tushuniladi. Yangilik nuqtai nazaridan ilg'or pedagogik tajribaning har xil turlari ajratiladi :

- Reproduktiv xarakterdagi tajriba (ommaviy tajriba). O'qituvchining ma'lum bo'lgan pedagogik amaliyotga yangilik elementlarini kiritishi, buning natijasida pedagogik tajribani moslashtirishi bilan qimmatlidir .

- Izlanish tajribasi. O'qituvchi yoki pedagogik jamoaning pedagogik jarayonning kelajakdagi sifatini modellashtirishi, ya'ni tadqiqot faoliyatini amalga oshirishi bilan qimmatlidir .

Ilg'or pedagogik tajribani joriy etish uning asosiy ko'rsatkichlaridan ta'lim muassasasining ommaviy amaliyotida foydalanish hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishdagi eng muhim vazifa uning ilmiy, kognitiv va amaliy ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq vazifadir. Buning uchun o'rganilayotgan





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

pedagogik ob'ektning qandaydir oldindan ishlab chiqilgan mezonlarga mos kelishini tahlil qilish kerak. Pedagogik tajribani o'rganish bir necha bosqichlardan o'tadi va majburiy ravishda kuzatish, tajribani o'rganish, birlamchi manbalar, hujjatlarni tahlil qilish, suhbatlar kabi boshqa an'anaviy usullar bilan birlashtiriladi. Pedagogik tajribani tushunish va tahlil qilish chuqurligiga qarab aniqlaymiz va o'rganamiz. Bu borada o'rganishning bir necha bosqichlaridan foydalaniladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarini amalyotga joriy etish o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan quyidagi 5 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich: Ilg'or tajribalarni aniqlash.
- 2-bosqich: Ilg'or tajribalarni o'rganish,
- 3-bosqich: Ilg'or tajribalarni umumlashtirish,
- 4- bosqich: Ilg'or tajribalarni ommalashtirish
- 5- bosqich: Ilg'or tajribalarni targ'ibotini tashkil qilish.

1-bosqich: Ilg'or tajribalarni aniqlash quyidagi me'zonlar asosida amalga oshiriladi.

-Natijaviyligi, o'quv- tarbiya natijalarining samarasi muntazam va yuqori darajada ekanligi;

-Amaliy ahamiyati va dolzarbligi, o'quv-tarbiya vazifalarining samarali bajarilishi , boshqaruv faoliyati mazmunining takomillashtirilishi:

- Pedagogik amaliyotda zarurligi, faolligi va istiqbolliligi ;
- Yangiligi, amaliyotdagi metodikaga qo'shgan yangi usullari;
- Pedagogik jarayonda yangi qonuniyatlarni kash etishga ta'siri, pedagogika va metodikadagi erishilgan natijalar zamonga mosligi;
- Isbotlanganigi, yuqori natijaviyligi va samaradorligi;

-O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi sifat ko'rsatkichlarining yuqori natijaviyligi va ilg'or tajriba shaxsni rivojlanish va tarbiyalanish darajasiga yo'naltirilganligi;





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

-Barqarorligi , bir necha marta yuqori natijaga erishganligi , har xil sharoitda sinab ko'rilganligi;

-Ommaviy ravishda amaliyotda tajribani ijodiy qo'llash imkoniyati mavjudligi( mahsus sharoitda m'ljallangan tajribalar ommalashtirilmaydi) -Optimalligi, minimal vaqt , sharoit va vositalarda yuqori darajaga erishganligi ;

-Butunligi, tajriba o'quv jarayoninig qisi sifatida ko'rilishi; -Istiqbolliligi, ilg'or ish tajribalarni rivojlantirish va ulardan amaliyotda foydalanish istiqbollarning borligi.

2-bosqich: Ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganishda nimalarga e'tibt qaratish lozim:

-Ta'lim jarayonidagi zamonaviy muommolar echimini aks ettiruvchi tajribani tanlashi;

-Aniqlangan tajribani uzoq vaqtga mo'ljallab ishlab chiqilgan dastur asosida ta'limning butun ko'lamini qamrab olgan holda o'rganishi;

-Tajribani o'rganish jarayoniga o'qituvchilarni imkon darajasida ko'proq jalb etish , ularning taqrizlari, fikr va mulohazalarini e'tiborga olinishi;

-O'rganilayotgan ish tajribaning muommolarga ta'sir qiluvchi va tuzatuvchi xarakterga ega ekanligini e'tiborga olinishi;

-O'rganilayotgan ish tajribaga samarali ilg'or pedagogik texnologiyalarning olib kirilganligi;

-O'qituvchining 3 yillik faoliyati davomida talabalar o'zlashtirish natijalarini tahlil qilishi;

- Ilg'or tajribani rivojlanib boorish jarayonida o'rganish.

3-bosqich: Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishda (amamliyotda foydalanish imknilyatlari, taqdim etilgan joyni hisobga olgan holda ) quyidagi ishlarni amalga oshitish keak:

-O'qituvchi haqidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi;





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

- O'rganilgan yo'nalish bo'yicha o'qituvchining amalga oshirgan ishlari to'plam holatiga keltiriladi.

-O'qituvchining ilg'or ish tajribasiga aniq xulosalar qilinadi;

-O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi bajargan ishlari , bildirilgan taklif va mulohazalar yuzasidan mukammal tavsiyalar yaratiladi;

-Materillar kerakli miqdorda ko'paytiriladi. Pedagogik tajribani umumlashtirish har doim o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishdir;

uning tanlanishi, tasnifi; asosiy, asosiyini tanlash;

o'rganilayotgan tajribadagi xususiyatlarni aniqlash; tadqiqotning asosiy natijalarini tavsif yoki og'zaki taqdimot shaklida ifodalash.

4-bosqich: Ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirishda quyidagi shakllarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-Pedagogik kengash, anjumanlarda so'zlab berish yoki "Mahorat darslari" ni tashkil etish;

-Ommaviy axborot vositalarida maqolalar, tavsiyalar shaklida berish;

5-bosqich: Ilg'or pedagogik tajribani targ'ib qilish quyidagi tartib asosida amalga oshiriladi:

-Ilg'or ish tajribasi o'quv seminarlar orqali;

-Ochiq darslar tashki etish orqali;

-Konferensiyalar orqali;

-Ko'rik-tanlovlar orqali;

-Internet ta'lim saytlariga joylashtirish orqali.

Pedagogik tajribani tahlil qilish mezonlari orasida quyidagilar ajralib turadi: Pedagogik tajribaning ijtimoiy talablarga, jamiyat tartibiga majburiy muvofiqligi.

Pedagogik faoliyat jarayonida ilg'or pedagogik tajriba faol qo'llaniladi. Undan foydalanish ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga, o'quv faoliyatini tashkil etishni soddalashtirishga, pedagogik samaradorlikni oshirishga va kasbiy pedagogik





# JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

muhitda jamoaviy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Ilg'or pedagogik tajriba tashuvchilar bevosita o'qituvchilardir. Ular jarayonga innovatsion g'oyalarni joriy etishlari, ta'lim sifatini oshiradigan o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning usul va uslublarini taklif qilishlari mumkin.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash o'qituvchining darslarini kuzatish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'ladi. So'ngi yillarda ochiq darslarni rejalashtirish o'qituvchi uchun shart bo'lgan me'yorga aylanib bormoqda. Shunga ko'ra har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida, o'z sohasining malakali va bilimdon fidoyisi sifatida ilmiy asoslangan dars tahlili va uning metodikasini bilmog'i lozim. Dars tahlillari jarayonida o'qituvchi tomonidan ko'tarib chiqilgan yangiliklar, yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar tatbiqi va uning samaradorligiga ko'ra ta'lim mazmunidagi ijobiy o'zgarishlarga qarab ilg'or pedagogik tajriba umumlashtiriladi va ommalashtiriladi.

Pedagogik mahorat o'quv va tarbiyaviy faoliyatning muvaffaqiyatli borishi uchun katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z faoliyatida innovatsion usullardan foydalanmasligi mumkin, lekin pedagogik jarayonni tashkil etishning mavjud tamoyillari va texnologiyalarini mohirona qo'llash o'qituvchi ishini birinchi darajaga olib chiqish va uni namuna sifatida tasdiqlash imkonini beradi.

Pedagogik jarayon yuqori sifatli, samarali bo'lishi va jamiyat va ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan natijalarga erishishi kerak. O'quv faoliyati kursining natijalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: ta'lim va tarbiyaning ko'zlangan maqsadiga erishish, ta'limning yuqori sifati, shaxsning rivojlanish darajasini oshirish, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sur'atlarini tezlashtirish.

Mavjud resurslarni takomillashtirish va pedagogik jarayonni optimal tashkil etish orqali eng yaxshi natijalarga erishiladigan shunday pedagogik tajribani biz eng yaxshi pedagogik tajriba deb bilamiz. U asosan pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari - o'quv jarayoni, ta'lim jarayoni va boshqalarni aks ettiradi. Tajriba manbai sifatida alohida o'qituvchi yoki o'qituvchilar guruhi, fan uslubiy birlashmasi, butun pedagogik





jamo'a bo'lishi mumkin. Pedagogik jarayon rivojlanib, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi yangilik, innovatsion g'oyalar, ilmiy kashfiyotlar va unda ijodiy tarkibiy qism mavjudligi bilan tavsiflangan tajribani qo'llashi kerak. Pedagogik tajriba ma'lum bir davrda dolzarb bo'lishi va kelajakda qo'llanilishi mumkin bo'lishi kerak. Bu esa ta'limdagi ijobiy natijalarni kelgusi avlodga yetkazish uchun juda muhim hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Боровская Л. Педагогический опыт: мастерство плюс практика. // Управление школой, 2007, №13. – с.24-26.
2. Пашкович, Т. Ф. Критериальные подходы к оценке эффективного педагогического опыта / Т. Ф. Пашкович // Юрванне у адукацп. - 2009. - №5.
3. Валеев Г.Х. Обобщение передового педагогического опыта с позиций системно-целостного подхода // Педагогика. – 2005, №5. – с.39-44
4. В.Ходжаев, А.Чориев, З.Салиева, И.Чориев Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. Toshkent.2019-yil.
5. В.Ходжаев, А.Чориев, З.Салиева, И.Чориев Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. «Iqtisodiyot dunyosi» nashriyoti, 2018-yil.
6. Yadgarova A.A. Pedagogik tajribani o'rganish va amalga oshirish jarayonini tashkil etish xususiyatlari. "Yosh olim" 2017-yil.

